



Organizational aspects of operational search measures in combating customs-related crimes

Farkhod GAFUROV¹

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

25 February 2025

Keywords:

crime,
customs-related crimes,
operational-search activity,
operational-search
measures,
Law of the Republic of
Uzbekistan "On Operational-
Search Activity",
Criminal Procedure Code,
investigative operations,
investigative methods,
forensic methods,
violation of customs
legislation,
Criminal Code.

ABSTRACT

This scientific article examines the specifics of organizing operational and investigative measures, as well as the principles and conditions for their implementation. The study analyzes research findings and opinions of Uzbek and foreign scholars on this topic, including their scientific approaches. Additionally, the article presents evidence-based proposals and recommendations aimed at improving the operational and investigative measures conducted when solving crimes in the customs sphere.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp195-199>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv tadbirlarining tashkiliy jihatlarini

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

jinoyat,
bojxona sohasidagi
jinoyatlar,
tezkor-qidiruv faoliyati,
tezkor-qidiruv tadbirlari,
O'zbekiston

Mazkur ilmiy maqolada bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkil etish xususiyatlari, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish asoslari va shartlari, tezkor-qidiruv tadbirlarini tadqiq qilish bo'yicha o'zbekistonlik va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlari va

¹ PhD, Independent Researcher, Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: fedya90.ivanov@mail.ru

Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, Jinoyat-protsessual kodeksi, razvedkaviy operatsiyalar, razvedkaviy usullar, kriminalistik usullar, bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish, Jinoyat kodeksi.

fikrlari hamda ilmiy yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda o‘tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlarini takomillashtirish choralari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar yoritib berilgan.

Организационные аспекты оперативно-розыскных мероприятий в борьбе с преступлениями в таможенной сфере

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

преступление, преступления в таможенной сфере, оперативно-розыскных мероприятий, Закон Республики Узбекистан «Об оперативно-розыскной деятельности», Уголовно-процессуальный кодекс, оперативно-розыскная деятельность, разведовательные операции, методы разведки, криминалистические методы, нарушение таможенного законодательства, Уголовный кодекс.

В данной научной статье рассматриваются особенности организации оперативно-розыскных мероприятий, а также принципы и условия их проведения. Анализируются научные исследования и мнения узбекских и зарубежных ученых по данной теме, включая их научные подходы. Кроме того, представлены научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на совершенствование оперативно-розыскных мероприятий, проводимых при раскрытии преступлений в таможенной сфере.

KIRISH

Bugungi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda bojxona organlari tezkor bo‘linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazilib kelinmoqda. Bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish amaliyoti tahlillariga ko‘ra, hozirgi kunda bojxona sohasida sodir etilayotgan jinoyatlar uyushgan guruhlar tarkibida, puxta niqoblangan va murakkab jinoiy sxemalardan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Bunday tavsifga ega jinoyatni fosh etishga faqat bojxona ishining nozik jihatlarini bilgan holda, kriminalistik va tezkor-qidiruv usullarni, kuch va vositalarni maqsadli safarbar etib, bojxona nazorati va tekshiruvlarini malakali o‘tkazish yo‘li bilangina erishiladi. Shu bois, bugungi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda bojxona organlari tezkor bo‘linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkil etishni uzluksiz ravishda takomillashtirib borish zarurati mavjud.

ASOSIY QISM

Xususan, bugungi kunga qadar bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda bojxona organlari tezkor bo'linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkillashtirish masalalarini bir qator mahalliy va xorijlik olimlar tadqiq qilib, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha o'zlarining ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarini ishlab chiqqanlar. Hozirgi kunga qadar bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda bojxona organlari tezkor bo'linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkillashtirish masalalarini tadqiq etgan mahalliy va xorijlik olimlarning tadqiqot ishlari o'rganib chiqilganda, ular asosan, yuqorida bayon etilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkil etishning tarkibiy elementlari va bosqichlaridagi jihatlarni takomillashtirish bo'yicha o'zlarining taklif va tavsiyalarini ishlab chiqqanlar. Jumladan, ko'pchilik olimlar asosan, tezkor-qidiruv tadbirlarini huquqiy tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratishgan.

Masalan, o'zbekistonlik olim R.N. Raximxo'jayev o'z tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunida ko'rsatib o'tilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish asoslari va shartlarini takomillashtirish g'oyasini ilgari surgan. Ya'ni qonunning 15-moddasiga quyidagi mazmunda o'zgartish va qo'shimchalar kiritish zarurligini asoslab bergan [1, B-95-102]. Rossiyalik olim V.A. Lazareva esa jinoiy javobgarlikni belgilash asosi sifatida tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilib, har bir tezkor-qidiruv tadbirining natijalari dalil sifatida inobatga olinishi uchun e'tibor berilishi kerak bo'lgan harakatlarni va hujjatlashtirish usullarini ko'rsatib o'tgan.

Masalan, tezkor xodimlar tomonidan fuqarolarni jinoyat sodir etishga undash (ig'vo qilish) orqali olingan ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha isbot qilishda foydalanilmasligini asoslab bergan [2, B-2].

Shu bilan birga, bugungi kunga qadar, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish jarayonida inson huquq va erkinliklariga rioya etish hamda qonuniylikni ta'minlash vazifalarini samarali hal qilish uchun tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning turli xususiyatlariga ko'ra tasniflash masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan va bir qator soha olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, o'zbekistonlik olimlar A.K. Zakurlayev va Yu.S. Pulatovlar tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish tartibiga ko'ra, quyidagicha tasniflagan: 1) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga bo'lgan munosabatga qarab, 2) yashirinlik darajasiga qarab, 3) texnika vositalaridan foydalanilishiga qarab, 4) foydalanilayotgan tezkor-texnika kuchlari va vositalarining taalluqliligiga qarab [3, B-82-86]. Shuningdek, rossiyalik olimlar K.K. Goryainov, Yu.F. Kvasha va K.V. Surkovlar tezkor-qidiruv tadbirlarini tasniflashning quyidagi variantini taklif qilishgan: 1) qidiruvga moslashtirilgan kriminalistik usullar: so'rov kabi. 2) qidiruvga xos bo'lgan razvedkaviy usullar: telefonlar va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitish. 3) razvedkaviy operatsiyalar: tezkor kiritish kabi [4, B-274].

Shu bilan birga, rossiyalik olim A.Yu. Shumilov esa tezkor-qidiruv tadbirlarini uchta toifaga bo'lib tasniflaydi: birinchi toifa (oddiy) – fuqarolarning huquqlarini cheklamaydigan tezkor-qidiruv tadbirlari; ikkinchi toifa – fuqarolarning huquqlarini cheklaydigan tezkor-qidiruv tadbirlari; uchinchi (maxsus) toifa – bunga tezkor eksperimentni kiritadi [5, B-81]. Bundan tashqari, o'zbekistonlik olim V. Karimov tezkor-qidiruv tadbirlarini qonuniylikni ta'minlashga hissa qo'shuvchi alohida muhim asoslariga

ko'ra tasniflashga e'tibor qaratgan va tezkor-qidiruv tadbirlarini shartli ravishda uchta guruhga bo'lib quyidagicha tasniflagan: a) o'tkazish uchun ruxsat (sanksiya) talab qilmaydigan tezkor-qidiruv tadbirlari; b) tezkor-qidiruv organi rahbarining qarori asosida o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari; v) sud sanksiyasi asosida o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari [6, B-82].

Shuningdek, ko'pchilik olimlar individuallik asosida alohida-alohida tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkil etish xususiyatlarini tadqiq qilishgan. O'zbekistonlik olim V. Karimov jinoyatlarni fosh etishda tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkil etishda quyidagi umumiy tavsiyalarga amal qilish tezkor-qidiruv tadbirlarini muvaffaqiyatli o'tkazishga yordam berishini ta'kidlab o'tgan: tezkor-qidiruv tadbirlari va protsessual harakatlarning uyg'unligini rejalashtirib olish, eng samarador tezkor-texnik vositalardan foydalanish, jinoyatlarni fosh etish jarayonida turli bo'linmalar (tezkor-qidiruv va tezkor-texnik tuzilmalar)ning ishtiroki va hamkorligini ta'minlash, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari, nazorat qiluvchi organlar bilan hamkorlikning turli shakllaridan foydalanish, jinoyatni fosh etishga ko'maklashuvchi shaxslarni jalb qilish [7, B-317]. Shuningdek, rossiyalik olimlar K.K. Goryainov, V.S. Ovchinskiy, G.K. Sinilov, A.Yu. Shumilovlarning fikriga ko'ra, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish paytida texnik vositalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyati shundaki, tezkor-qidiruv tadbirlari jarayonlarini fotosuratlar va audio-video yozuvlar bilan mustahkamlash imkoniyatini beradi [8, B-394-399].

XULOSA

Yuqorida olib borilgan tadqiqot va tahlillar natijalariga ko'ra, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatida o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlarining tashkiliy – huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Kelgusida bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi taklifni qonunchilikka joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

– O'zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”gi Qonunining “Tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy prinsiplari” nomli 5-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish orqali unga 2 ta yangi tezkor-qidiruv faoliyatining prinsiplarini qo'shish va mazkur yangi prinsiplarning mazmunini quyidagi 2 ta yangi 9¹-modda va 9²-moddalarda bayon etish:

“5-modda. Tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy prinsiplari

Tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, konspiratsiyadan, oshkora va nooshkora usullar uyg'unligi, **fuqarolarning yordamiga tayanish, fan yutuqlaridan, zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimlaridan foydalanishning ustuvorligi** prinsipidan iborat.”

“9¹-modda. Fuqarolarning yordamiga tayanish prinsipi

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'z faoliyatida aholi bilan yaqin aloqada bo'ladi va fuqarolarning yordamiga tayanadi.”

“9²-modda. Fan yutuqlaridan, zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimlaridan foydalanishning ustuvorligi

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'z faoliyatida fan yutuqlari, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalar, shuningdek axborot tizimlaridan foydalanadi.”

Ushbu taklif etilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 12-moddasiga asosan, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning maxfiylik asosida ko'maklashish istagini bildirgan shaxslar bilan pulli yoki bepul hamkorlik o'rnatish, yuridik yoki jismoniy shaxslarning roziligi bilan ularga tegishli xizmat joylari va turar joylardan, transport vositalari va boshqa mol-mulkdan foydalanish huquqlari berilgan, shu bilan birga, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda ham fuqarolar yordamidan foydalaniladi. Ushbu huquqlardan foydalanish orqali tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'z faoliyatlarida fuqarolarning yordamiga tayanadilar.

Ikkinchidan, Qonunning 12-moddasida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar video- va audioyozuv, kino- va fotosuratga olish vositalarini, shuningdek insonning hayoti va sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfsiz boshqa texnika vositalarini qo'llash, tezkor-qidiruv uchun mo'ljallangan axborot tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Ushbu huquqlardan foydalanish tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'z faoliyatlarida fan yutuqlaridan, zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimlaridan foydalanishning ustuvorligi prinsipiga tayanadilar.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan takliflarni O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga kiritish tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Raximxo'jayev R.N. "Ichki ishlar organlari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishni huquqiy tartibga solishning ayrim jihatlari" nomli ilmiy maqola. Huquqiy tadqiqotlar jurnali. 95-102-betlar. 2021-yil.

2. Lazareva V.A. "Osobennosti provedeniya operativno-rozisknix meropriyatiy dlya ustanovleniya osnovaniy ugolovnoy otvetstvennosti". Nauchnaya statya. 2011 g. s-2.

3. Zakurlyayev A.K., Pulatov Yu.S. Tezkor-qidiruv faoliyati: o'quv qo'llanma. – T.: TDYUU, 2014. – B. 82-86.

4. Goryaynov K.K., Kvasha Yu.F., Surkov K.V. Federalniy zakon ob operativno-rozisknoy deyatelnosti: Kommentariy. – M., 1997. – S. 274.

5. Karimov V. "Tezkor-qidiruv tadbirlarining qonunchilik asoslarini takomillashtirish: tahlil va taklif" ilmiy maqola. O'zbekiston bojxona axborotnomasi. 2019-yil. 2-son B-81.

6. Karimov V. "Tezkor-qidiruv tadbirlarining qonunchilik asoslarini takomillashtirish: tahlil va taklif" ilmiy maqola. O'zbekiston bojxona axborotnomasi. 2019-yil. 2-son. – B. 82.

7. Karimov V. "Tezkor-qidiruv faoliyati" darslik. 2021-yil. B-317.

8. Goryainov K.K., Ovchinskiy V.S., Sinilov G.K., Shumilov A.Yu. Operativno-rozisknaya deyatelnost: Uchebnik. M.: INFRA-M, 2004. -XIV, 394-399 s.